

Madaniy meros agentligida 2025-yil 3-choragi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

UMUMIY HISOBOT

I. Agentlikning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son hamda 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Madaniy meros agentligi direktorining 2023 yil 23-maydagi 83-R-son buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlangan.

Hisobot davrida Agentlikda Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish maqsadida 11 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilingan.

Jumladan, Madaniy meros agentligi, uning tizim tashkilotlari va tarkibiy bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati, Manfaatlarni ta'minlash bo'yicha boshqarish bo'yicha Nizom, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti, Xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma, Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma, Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma, Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom, Agentlikka aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xattiharakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlar qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti hamda Xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son hamda 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Madaniy meros agentligi direktorining 2023 yil 23-maydagi 83-P-son buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarori ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Agentlik direktori tomonidan joriy yilning 31-yanvarida 25-P sonli buyrug'i qabul qilindi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va amalga oshirilayotgan ishlarni aniq mezonlar bo'yicha yo'lga qo'yish maqsadida mazkur soha bo'yicha yo'nalishlarni belgilab beruvchi asosiy ichki idoraviy hujjatlar yangilandi va amaliyotga tatbiq etildi. Xususan,

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish choratadbirlari to'g'risida" PQ-240-son qarorijrosini ta'minlash maqsadida agentlikning barcha funksiyalari "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti"ga (ro'yxat raqami: 3383, 31.08.2022- yil) asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "Eanticor.uz" platformasi orqali baholandi.

Chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Hisobot davrida Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizomga asosan agentlik markaziy apparatining 92 nafar boshqaruv xodimi yillik, 13 nafar xodim ishga kirish jarayonida, 19 nafar xodim esa lavozimi o'zgarayotganda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirgan. Xodimlar tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilindanda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Bundan tashqari hududiy boshqarma xodimlari tomonidan ham manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirilishi ta'minlandi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik sharnomalariga kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 -yil sentabrdagi

"Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son Farmonda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlari bilan bog'liq tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar belgilanishi ko'rsatilgan. Shunga muvofiq barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan.

Bundan tashqari xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilib, mehnat shartnomasi imzolalanayotganda ularga imzo qo'ydirgan holda tanishtirilmogda.

Agentlik bilan shartnomaviy munosabatga kirishgan kontragent tomonidan xo'jalik shartnomalarida belgilangan korrupsiyaga qarshi shartlarni buzish holatlari mavjud emas.

Bosh prokuratura bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2025-2026 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasining 1-bandi ijrosini ta'minlashga ko'maklashildi;

Bosh prokuratura bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2025-2026 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasining 5-bandida O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi 103-sonli qarori talablariga zid ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish holatlarining oldini olish maqsadida targ'ibot tadbirlarini kengaytirish, bunda Korrupsiyaga qarshi kurashish va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish holatlarini muntazam tekshirib borish belgilangan.

Shunga asosan, ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq ma'lumotlar asosida Agentlik markaziy apparatida faoliyat yurituvchi rahbar va boshqaruv hodimlarning tadbirkorlik bilan bog'liq faoliyati o'rganildi.

Bosh prokuratura bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2025-2026 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasining 7-bandi ijrosini ta'minlashga ko'maklashildi;

Bosh prokuratura bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2025-2026 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasining 18-bandida Agentlik va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida doimiy ravishda anonim so'rovnoma o'tkazish belgilangan.

Shunga asosan, korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida so'rovnoma savollari ishlab chiqildi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq ma'lumotlar asosida Agentlikning hududiy boshqarmalari rahbarlari hamda Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasida faoliyat yurituvchi rahbar va boshqaruv hodimlarning tadbirkorlik bilan bog'liq faoliyati o'rganildi.

Hisob palatasining masofaviy audit dasturi orqali tizim tashkilotlaridagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq risklar tahlil qilindi. Xususan:

- Maxsus axborot portalida (Milliy do'kon) 22.07.2025-yilda davlat xaridlari natijasi bo'yicha Namangan viloyatidagi madaniy meros obektlarni toposyomka ishlarni

251111144069811 va 251111144069805-sonli

"MUKAMMAL LOYIHA KADASTR" MChJ g'olib deb topilib, ushbu MChJ bilan 3476484 va 3476476 - sonli shartnomalar tuzilgan. Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tushgan risk (xavf)lar o'rganilganda Namangan viloyati madaniy meros boshqarmasining boshlig'i Kadirov Maxamad Pulatovich "MUKAMMAL LOYIHA KADASTR" MChJning ta'sischisi (50 foiz) ekanligi aniqlandi. Biroq, ushbu shartnomalar affilganlik borligi sababli 2025 -yil 31-iyul kuni bekor kilinganligi ma'lum bo'ldi.

- Samarkand Davlat muzey qo'riqxonasi tomonidan Maxmudxo'ja Bexbudiy uymuzeyida Behbudiyning 150 yillik yubileyini keng nishonlash yuzasidan Maxsus axborot portaliga (Milliy do'kon) 251110083437015, 251110083437019 va 251110083454219-sonli lotlar bilan e'lon joylashtirilgan. Mazkur lotlar bo'yicha "AZAMAT BEST STROY" MChJ g'olib deb topilib, ushbu MChJ bilan shartnomalar tuzilgan. Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tushgan risk (xavf)lar o'rganilganda Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasining yetakchi mutaxassisi A.Begimov "AZAMAT BEST STROY" MChJning ta'sischisi (100 foiz) ekanligi aniqlandi.

- Amaliy sanat va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi tomonidan muzeyda inventarizatsiya faoliyati davomida muzey ashyolarini qaytadan qadoqlash va qulay sharoitda saqlash maqsadida Maxsus axborot portaliga (Milliy do'kon) 241110082500259-sonli lot bilan e'lon joylashtirilgan. Mazkur lot bo'yicha "BUSINESS RING" MChJ g'olib deb topilib, ushbu MChJ bilan shartnoma tuzilgan. Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tushgan risk (xavf)lar o'rganilganda muzey xodimi Sh.Xasanov shartnoma tuzilgan aqtda "BUSINESS RING" MChJning ta'sischisi (50 foiz) ekanligi, biroq keyinchalik ushbu xodim tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini tugatganligi, hozirgi kunda Sh.Xasanov "BUSINESS RING" MChJning ta'sischisi emasligi aniqlandi.

Mazkur holatlar yuzasidan ma'lumotnoma rasmiylashtirilib masofaviy audit dasturiga biriktirildi.

Kontragentlarni tekshirish

Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomaga (2023 -yil 23-maydagi 83-P—son buyruq 6-ilovasiga) asosan agentlik bilan shartnomaviy huquqiy munosabatga kirishgan kontragentlar tekshirib borilmoqda.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Agentlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma (2023-yil 23-maydagi 83-P—son buyruq); ishlab chiqilgan bo'lib, agentlik tizimiga ishga qabul qilinuvchi nomzodlar mazkur yo'riqnoma talablariga asosan tekshirilmoqda. Xususan, 2024-yil davomida ishga qabul qilingan 26 nafar nomzodlar haqidagi hujjatlar o'rganilib, ularga ijobiy xulosa berilgan. V. Ta'lim va kommunikatsiya

Agentlik va tizim tashkiloti xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalari doimiy ravishda oshirib borilmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan 2025-yilga mo'ljallangan o'quv dasturi hamda "Agentlikning hududiy va soha (tarmoq)lar kesimida 2025-yil uchun aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir CHORATADBIRLAR REJASI" ishlab chiqilib, unga muvofiq targ'ibot tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda. Bundan tashqari xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida turli xil targ'ibot materiallari ishlab chiqilib, xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida davra suhbatlari tashkil qilindi.

2-chorak davrida agentlik markaziy apparatining 12 nafar boshqaruv xodimlari, 45 nafar hududiy boshqarmalarining rahbar va xodimlari hamda sport ta'lim muassasalarining rahbar xodimlarining Huquqni muhofaza qilish akademiyasining edu.proacademy.uz platformasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalalar?" mavzusida 12 soatlik o'quv kurslarida ishtirok etishi ta'minlandi.

Shuningdek, 10 nafar xodimlar Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazining uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasida "Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish" mavzusida masofaviy kurslarda ishtirok etishi ta'minlandi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Agentlikka 2024 yilda korrupsiya faktlariga doir jami 2 ta murojaat kelib tushgan. Makur murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqilmoqda va 1 ta shi takroriy murojaat bo'lganligi sababli tugatilgan, 1 ta murojaat ijro jarayonida 4 nafar xodim bilan profiloktik suhbatlar o'tkazildi.

VII. Monitoring va nazorat

"Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti" ((2023-yil 23-maydagi 83-P—son buyruq) ga asosan doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi talablarning bajarilishi monitoring qilib borilmoqda va ularning ijrosi bo'yicha nazorat tadbirlari tashkil qilib kelinmoqda. Xususan, joriy Yil davomida agentlik markaziy apparati xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilganligi monitoring qilindi. Monitoring natijasida barcha mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilganligi va xodimlar ushbu shartlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirilayotganligi aniqlandi. Bundan tashqari tizim tashkilotlarida monitoring-nazorat va o'rganish tadbirlari o'tkazildi. Tadbirlar davomida xodimlarning odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinishi hamda xodimlar tomonidan ushbu hujjatlarda belgilangan tartib-tamoyillardan xabardorligi o'rganildi.

Shuningdek, tizim tashkilotlarida 45 ta so'rovnoma o'tkazildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limining 2025 Yil ish rejasining 2-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Agentlik xodimlari J.I.Juraev va T.Norovlar tomonidan Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining (keyingi o'rinlarda - boshqarma) 2024 Yil 01 yanvardan 2025 yilning 01 martgacha bo'lgan davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Agentlikning buyruqlari hamda hukumatning tegishli me'yoriy hujjatlari ijrosi, shuningdek, boshqarmaga ajratilgan budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan taqdim qilingan birlamchi hujjatlar asosida tanlov yo'li bilan tekshirish o'tkazildi.

Tekshirish maqsadi: Muzeyda mehnat qonunchiligi, xodimlarga ish haqlarining hisoblanishi, o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi, shtat-smeta intizomiga rioya qilinishi ahvoli, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablari ijrosi ahvoli.

Tekshirish maqsadi: Boshqarmada xodimlarga ish haqlarining hisoblanishi, o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi, shtat-smeta intizomiga rioya qilinishi ahvoli, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablari ijrosi ahvoli.

2024 Yil xarajatlar smetasi doirasida yillik 1 007 678.0 ming so'm (BTJ 1 984 594.0 ming so'm) tasdiqlangan bo'lib, 819 258.9 ming so'm kassa xarajati (BTJ 39 562.9 ming so'm) va 819 258.9 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 38 993.1 ming so'm) amalga oshirilgan. Jumladan;

1-gurux xarajatlari uchun (ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) 634 800.0 ming so'm (BTJ 1 485 934.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 588 568,7 ming so'm kassa xarajati (BTJ 1 038 936.0 ming so'm) va 588 568,7 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 1 038 936.0 ming so'm) amalga oshirilgan.

2-gurux xarajatlari uchun (Yagona ijtimoiy to'lov va boshqa ajratma to'lovlar) 157 613.0 ming so'm (BTJ 371 483.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 146 707,8 ming so'm kassa xarajati (BTJ 259 734.0 ming so'm) va 146 707,8 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 259 734.0 ming so'm) amalga oshirilgan.

4-gurux xarajatlari uchun (Boshqa to'lovlar) 215 265.0 ming so'm (BTJ 127 177.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 83 982,3 ming so'm kassa xarajati (BTJ 11 670.0 ming so'm) va 83 982,3 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 11 670.0 ming so'm) amalga oshirilgan. (jadval ilova qilinadi)

2025 Yil xarajatlar smetasi doirasida yillik 1 075 338.0 ming so'm (BTJ 2 235 243.0 ming so'm) tasdiqlangan bo'lib, 2 oy uchun 124 199.2 ming so'm kassa xarajati (BTJ 33 674.3 ming so'm) va 124 199.2 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 33 674.3 ming so'm) amalga oshirilgan. Jumladan;

1-gurux xarajatlari uchun (ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) 688 745.0 ming so'm (BTJ 1 791 778.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 2 oy uchun 86 979.8 ming so'm (BTJ 26 939.5 ming so'm) kassa xarajati va 86 979.8 ming so'm (BTJ 26 939.5 ming so'm) xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

2-gurux xarajatlari uchun (Yagona ijtimoiy to'lov va boshqa ajratma to'lovlar) 171 015.0 ming so'm (BTJ 443 465.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 2 oy uchun 21 744.2 ming so'm (BTJ 6 734.8 ming so'm) kassa xarajati va 21 744.2 ming so'm (BTJ 6 734.8 ming so'm) xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

4-gurux xarajatlari uchun (Boshqa to'lovlar) 215 578.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 2 oy uchun 13 099.8 ming so'm kassa xarajati va 13 099.8 ming so'm xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

Shtatlar jadvali:

2024 yil shtatlar jadvali Toshkent shahar Moliya boshqarmasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Shtatlar jadvalida jami 17 ta shtatlar birligidan iborat. Shundan, 9

ta ma'muriy boshqaruv xodimlari, 8 ta texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini tashkil etadi. Shtat jadvalining yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 634 845 206,60 so'mni tashkil etadi. (shtat jadvali ksera nusxasi ilova qilinadi)

2025 yil shtatlar jadvali Toshkent shahar Moliya boshqarmasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Shtatlar jadvalida jami 17 ta shtatlar birligidan iborat. Shundan, 9 ta ma'muriy boshqaruv xodimlari, 8 ta texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini tashkil etadi. Shtat jadvalining yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 688 745 628,13 so'mni tashkil etadi. (shtat jadvali ksera nusxasi ilova qilinadi)

Xodimlarga ish xaqi va boshqa to'lovlarni hisoblanishi:

Tekshiruv davri uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda "Vazirlar Mahkamasining «Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ulami moddiy rag'batlantirishning lakomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida» 2018 yil 19 iyundagi 458-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 706-son qaroriga asosan ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlar mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

Muqaddam o'tkazilgan tekshirishlar yuzasidan

Toshkent shahar prokuraturasining 05.04.2024 yildagi 10.415-45741-24-sonli xatiga asosan Toshkent shahar Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasining 18.04.2024 yildagi 102-xs-sonli buyrug'i bilan tekshirish o'tkazilgan.

Kadrlar masalasi yuzasidan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 18 oktabrdagi 297-son qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida" Nizomda budget tashkilotlarining rahbarlari, ulaming o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlari uchun kasblar va lavozimlarda bir necha kasb va lavozim asosida ishlashga, xizmat ko'rsatish zonasini kengaytirishga, ishlar hajmini ko'paytirishga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, kasblar va lavozimlarda bir necha kasb va lavozim asosida ishlashga, xizmat ko'rsatish zonasini kengaytirishga, ishlar hajmini ko'paytirishga, qoidaga ko'ra, jumlasiga ushbu xodim kiradigan xodimlarning ana shu toifasi doirasida ruxsat berilishi qayd etilgan.

Mazkur qaror bo'yicha o'rganilganda, Boshqarma xodimlari o'rindoshlik asosida ishlaganlik holatlari aniqlanmadi.

Boshqarmada mavjud ob'ektlar ularning ijarasi va kadastr hujjatlari qonuniyligi yuzasidan

Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi tomonidan ijaraga berilgan ob'ektlar tanlov asosida o'rganib chiqilganda quyidagi holatlar aniqlandi.

Boshqarma balansidagi 7 ta (Gulbozor, Mingo'rik, Azlarxon, Allon, Shoqosimboy, Langar va Tinchob) ob'ektlar bo'yicha ijara shartnomalari tuzilgan.

Jumladan, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Mosh tabib ko'chasi, 31-uyda joylashgan "Mingo'rik" ob'ektidagi 287 kv.m maydoni 27.04.2021 yilda 2581/03-21 sonli shartnoma bilan fuqaro B.Abdullaevga to'qimachilik sanoati bilan shug'ullanish maqsadida ajratilgan bo'lib, ushbu ob'ekt yillik ijara to'lovi sifatida 1 kv.m maydon uchun 214 448 so'm jami 61 546,5 ming so'm etib belgilangan.

Ushbu ob'ekt bo'yicha joyida chiqib o'rganilganda, fuqaro B.Abdullaev tomonidan to'qimachilik sanoati bilan shug'ullanmasdan, foto studiya tashkil etib, ma'daniy meros ob'ektidan boshqa maqsadda 2020 yildan buyon foydalanib kelayotganligi, xususan, ushbu ob'ektning umumiy maydoni 2 202 kv.m bo'lib, fuqaro B.Abdullaevga 287 kv.m ijaraga berilgan bo'lsada, haqiqatda 307 kv.m dan foydalanib kelinayotganligi aniqlandi.

Toshkent shahar hokimining 14.02.2024 yildagi 99-14-0/24-sonli "Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalarini hamda kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan to'lanadigan ijara to'lovi miqdorlarini belgilash haqida"gi Qaroriga ko'ra, "To'qimachilik sanoti" uchun 1 kv.m yillik ijara to'lovi 20 620 so'm belgilangan bo'lsa, "foto salon" xizmatlari uchun 66 670 so'm etib belgilangan.

Mazkur holatlar bo'yicha Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi mas'ul xodimlariga tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, Boshqarma tomonidan Toshkent shahar, Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 47-uyda joylashgan "Allon masjidi" ob'ektining umumiy qurilish osti maydoni 564 kv.m bo'lib, ushbu maydondan faqatgina 226.6 kv.m ijaraga berilgan.

Mazkur ob'ekt bo'yicha joyida chiqib o'rganilganda, 226,6 kv.m ijaraga berilgan maydonlardan tashqari 31 kv.m boshqa binolar ham tadbirkorlar tomonidan ijara shartnomalarsiz noqonuniy foydalanib kelayotganligi aniqlandi. Ushbu holat bo'yicha Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi mas'ul xodimlariga tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limining 2025 Yil ish rejasining 1-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Madaniy meros agentligi direktorining 2025 Yil 04 fevraldagi 27-S-sonli buyrug'iga asosan, Agentlik xodimlari J.I.Juraev va T.Norovlar tomonidan "O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyi"ning (keyingi o'rinlarda - Muzey) 2024 Yil 01 yanvardan 2025 yilning 01 fevralgacha bo'lgan davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Agentlikning buyruqlari hamda hukumatning tegishli me'yoriy hujjatlari ijrosi, shuningdek, Muzeyga ajratilgan budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan taqdim qilingan birlamchi hujjatlar asosida tanlov yo'li bilan tekshirish o'tkazildi.

Tekshirish maqsadi: Muzeyda mehnat qonunchiligi, xodimlarga ish haqlarining hisoblanishi, o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi, shtat-smeta intizomiga rioya qilinishi ahvoli, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablari ijrosi ahvoli. O'tkazilgan tekshirishda quyidagilar aniqlandi.

Muzeyning xarajatlar smetasini tasdiqlanishi va ijrosi:

2024 Yil xarajatlar smetasi doirasida yillik 1 342 521.0 ming so'm tasdiqlangan bo'lib, 1 373 441.9 ming so'm kassa xarajati (BTJ 39 562.9 ming so'm) va 986 715.4 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 38 993.1 ming so'm) amalga oshirilgan. Jumladan;

1-gurux xarajatlari uchun (ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) 455 199.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 474 215,6 ming so'm kassa xarajati (BTJ 20 309.0 ming so'm) va 487 347,4 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 20 739.0 ming so'm) amalga oshirilgan.

2-gurux xarajatlari uchun (Yagona ijtimoiy to'lov va boshqa ajratma to'lovlar) 112 822.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 113 415,0 ming so'm kassa xarajati (BTJ 5 077.2 ming so'm) va 112 394,1 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 5 184.7 ming so'm) amalga oshirilgan.

4-gurux xarajatlari uchun (Boshqa to'lovlar) 774 500.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 785 811,3 ming so'm kassa xarajati (BTJ 14 176.6 ming so'm) va 386 973,8 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 13 069.4 ming so'm) amalga oshirilgan. (jadval ilova qilinadi)

2025 Yil xarajatlar smetasi doirasida yillik 1 582 082.0 ming so'm tasdiqlangan bo'lib, 53 129.3 ming so'm kassa xarajati (BTJ 537.5 ming so'm) va 63 013.7 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 537.5 ming so'm) amalga oshirilgan. Jumladan;

1-gurux xarajatlari uchun (ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) 602 831.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 1 OY uchun 40 558.1 ming so'm kassa xarajati va 31 780,9 ming so'm xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

2-gurux xarajatlari uchun (Yagona ijtimoiy to'lov va boshqa ajratma to'lovlar) 149 201.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 1 OY uchun 10 173.1 ming so'm kassa xarajati va 7 730,9 ming so'm xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

4-gurux xarajatlari uchun (Boshqa to'lovlar) 830 050.0 ming so'm smeta tasdiqlangan bo'lib, 1 OY uchun 2 398.2 ming so'm kassa xarajati va 2 398.2 ming so'm xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan. (jadval ilova qilinadi)

Shtatlar jadvali:

2024 Yil shtatlar jadvali Xorazm viloyati Moliya boshqarmasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Shtatlar jadvalida jami 16 ta shtatlar birligidan iborat. Shundan, 8 ta ma'muriy boshqaruv xodimlari, 3 ta filial xodimlar, 5 ta texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini tashkil etadi. Shtat jadvalining yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 455 313 705,6 so'mni tashkil etadi. (shtat jadvali ksera nusxasi ilova qilinadi)

2025 Yil shtatlar jadvali Xorazm viloyati Moliya boshqarmasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Shtatlar jadvalida jami 17 ta shtatlar birligidan iborat. Shundan, 9 ta ma'muriy boshqaruv xodimlari, 3 ta filial xodimlar, 6 ta texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini tashkil etadi. Shtat jadvalining yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 669 203 631,9 so'mni tashkil etadi. (shtat jadvali ksera nusxasi ilova qilinadi)

Xodimlarga ish xaqi va boshqa to'lovlarni hisoblanishi:

2024 Yil davomida jami 474 215.6 ming so'm ish xaqi va boshqa to'lovlar xodimlarga hisoblangan. Shundan Yil davomida 24 632.5 ming so'm bayrampuli (8-mart «Xalqaro xotin qizlar» bayrami, 21-mart "Navro'z" bayrami, 18-may "Xalqaro muzeylar kuni" bayrami, 1-sentabr "Mustaqillik kuni" bayrami, 8-dekabr "Konstitutsiya kuni" va 1-yanvar "Yangi yil" bayrami munosabati bilan) hamda 17 856.3 ming so'm ustama hisoblangan.

2025 yil 1 oy davomida jami 40 558.1 ming so'm ish xaqi va boshqa to'lovlar xodimlarga hisoblangan. Ushbu davrda moddiy yordam puli va mukofot puli hisoblanmagan.

Tekshiruv davri uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda "Vazirlar Mahkamasining «Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ulami moddiy rag'batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida» 2018 yil 19 iyundagi 458-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 706-son qaroriga asosan muzeyda ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlar mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

Muqaddam o'tkazilgan tekshirishlar yuzasidan

- Xorazm viloyati prokuraturasining 15.08.2023 yildagi 10.4/8-23-sonli xatiga asosan Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 17.08.2023 yilda gi 67-a-sonli buyrug'i bilan tekshirish o'tkazilgan bo'lib, o'tkazilgan tekshirishda aniqlangan kamchiliklar muzey tomonidan bartaraf qilingan.

- Muzey direktorining 24.01.2025 yildagi N212-ICH-sonli buyrug'iga asosan muzey balansida mavjud TMBlar sanoqdan o'tkazilgan. (dalolatnoma ilova qilinadi).

Rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllanishi va sarflanishi:

2024 yil 1 yanvar holatiga 400121860334017082200349001 - g'azna shaxsiy hisob raqamlari bo'yicha 10 878,2 ming so'm mablag' qoldiq mavjud bo'lib, yil davomida chiptalarni sotilishi va boshqa tushumlardan jami 29 227,5 ming so'm mablag' kirim qilingan va 39 562,9 so'm (shundan PK-5150-son qarorning 8-bandiga asosan pullik xizmatdan tushgan tushumning 10 foiz miqdori sifatida yukori turuvchi tashkilot xisobiga 2 922,7 ming so'm) mablag' xarajat qilingan va 2025 yil 1 yanvar holatiga 542,8 ming so'm mablag' qoldiq qolgan. Agentlikdan qarzdorlik mavjud emas.

2025 yil 1 yanvar holatiga 400121860334017082200349001 - g'azna shaxsiy hisob raqamlari bo'yicha 542,8 ming so'm mablag' qoldiq mavjud bo'lib, 1 oy davomida chiptalami sotilishi va boshqa tushumlardan jami 1 494,5 ming so'm mablag' kirim qilingan va 537,5 so'm (shundan PK-5150-son qarorning 8-bandiga asosan pullik xizmatdan tushgan tushumning 10 foiz miqdori sifatida yukori turuvchi tashkilot xisobiga 149,5 ming so'm) mablag' xarajat qilingan va eski yillardan qolgan 1 329,7 ming so'mlik qarzdorlik to'liq to'langan. 2025 yil 1 fevral holatiga Agentlikdan qarzdorlik mavjud emas.

Muzey tomonidan xarid qilingan madaniy boyliklar yuzasidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.1995 yildagi PF—1154-son Farmonning 1-bandi hamda 24.01.1996 yildagi PF—1363-son Farmonning 2-bandiga ko'ra "Barcha xo'jalik shartnomalarida kamida 15% lik oldindan to'lov sharti majburiy tartibda ko'zda tutilgan.

"Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning ikkinchi qismi 10-moddasi mazkur qonunosti hujjatlariga havola qiluvchi normalarni saqlaydi va hisob-kitoblar tartibini aniqlashda shartnomada tovar (xizmat, ish)larning qiymati uchun qonunchilikda belgilangan miqdordan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lovni amalga oshirish shartini ko'zda tutish majburiyatini yuklaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 25 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros agentligi huzuridagi Badiiy ekspertlar kengashi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 474 sonli qarorning 2-ilovasi, 5-bob Moliyalashtirish va hisob kitob tartibi, 24-bandida "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Kengashining tasdiqlangan majlis bayonnomasini va Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining tegishli buyrug'i hamda qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda rassomlarga hisob-kitob qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarga muvofiq shartnoma bahosi mualliflik gonorari to'lash va ashyolarni tasarruf etuvchilar bilan hisob-kitobning 15 foizi miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirilishi, shuningdek, tegishli davlat muzeyining bosh muhofizi imzosi va muhri bilan tasdiqlangan, asarlarni muzey va ko'rgazma fondlariga qabul qilish dalolatnomasi taqdim etilgandan so'ng, rassomlar va asarlarni tasarruf etuvchilar bilan to'lovning qolgan 85 foizi hisob-kitob qilinadi" deb qayd etilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.10.2018 yildagi "Muzeylar faoliyatiga taalluqli me'yoriy hujjatlar to'g'risida"gi 237-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan Muzeylarning fond — xarid komissiyasi to'g'risidagi Nizomga ko'ra, mazkur nizomning 5-bob, 23-bandida, Sotib olish uchun Komissiya tomonidan baholanadigan ashyolar uchun to'lovlar muzey jamg'armasi yoki boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy va amaliy san'at asarlari, shuningdek, boshqa madaniy boyliklar ham ushbu mablag'lar

doirasida Komissiyaning qaroriga asosan sotib olinishi mumkinligi; shuningdek, 24-bandida, Sotib olingan ashyolar uchun to'lovlar Muzei va ashyolarni topshiruvchi yuridik, jismoniy shaxslar o'rtasida tuzilgan fuqarolik -huquqiy shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Jumladan, Muzei tomonidan 2024 yilning o'tgan davrida jami 537,3 mln. so'mlik tovar moddiy boyliklar shundan, 490,0 mln. so'mlik muzei eksponatlari yuqoridagi qarorlar hamda buyruq bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida muzei fondiga xarid qilib olganligi aniqlandi.

Kadrlar masalasi yuzasidan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 18 oktabrdagi 297-son qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida" Nizomda budget tashkilotlarining rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlari uchun kasblar va lavozimlarda bir necha kasb va lavozim asosida ishlashga, xizmat ko'rsatish zonasini kengaytirishga, ishlar hajmini ko'paytirishga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, kasblar va lavozimlarda bir necha kasb va lavozim asosida ishlashga, xizmat ko'rsatish zonasini kengaytirishga, ishlar hajmini ko'paytirishga, qoidaga ko'ra, jumlasiga ushbu xodim kiradigan xodimlarning ana shu toifasi doirasida ruxsat berilishi qayd etilgan.

Mazkur qaror bo'yicha o'rganilganda, Muzei xodimlari o'rindoshlik asosida ishlaganlik holatlari aniqlanmadi.

Muzei mavjud ob'ektlar ularning ijarasi va kadastr hujjatlari qonuniyligi yuzasidan

Muzei mavjud ob'ektlar o'rganilganda, muzei tomonidan muzei mavjud ob'ektlar ijaraga berilmaganligi aniqlandi

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limining 2025 Yil ish rejasining 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Agentlik direktorining 09.06.2025 yildagi 134-S-sonli buyrug'iga asosan, Agentlik xodimlari J.I.Juraev va T.Norovlar tomonidan Xorazm viloyat madaniy meros boshqarmasining (keyingi o'rinlarda - boshqarma) 2024 Yil 01 yanvardan 2025 yilning 01 iyungacha bo'lgan davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Agentlikning buyruqlari hamda hukumatning tegishli me'yoriy hujjatlari ijrosi, shuningdek, boshqarmaga ajratilgan budget mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan taqdim qilingan birlamchi hujjatlar asosida tanlov yo'li bilan tekshirish o'tkazildi.

Tekshirish maqsadi: Boshqarmada xodimlarga ish haqlarining hisoblanishi, o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi, shtat-smeta intizomiga rioya qilinishi ahvoli, "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonun talablari ijrosi ahvoli.

O'tkazilgan tekshirishda quyidagilar aniqlandi.

Boshqarmaning xarajatlar smetasini tasdiqlanishi va ijrosi:

2024 Yil xarajatlar smetasi doirasida yillik 1 099 122.0 ming so'm (BTJ 3 780 762.0 ming so'm) tasdiqlangan bo'lib, 1 057 736.5 ming so'm kassa xarajati (BTJ 1 173 175.9 ming so'm) va 1 057 736.5 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 1 173 175.9 ming so'm) amalga oshirilgan. Jumladan;

1-gurux xarajatlari uchun (ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) 783 457.0 ming so'm (BTJ 2 811 930.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 766 762.2 ming so'm kassa xarajati (BTJ 838 175.4 ming so'm) va 766 762.2 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 838 175.4 ming so'm) amalga oshirilgan.

2-gurux xarajatlari uchun (Yagona ijtimoiy to'lov va boshqa ajratma to'lovlar) 193 904.0 ming so'm (BTJ 702 983.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 189 988.8 ming so'm kassa xarajati (BTJ 209 543.8 ming so'm) va 189 988.8 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 209 543.8 ming so'm) amalga oshirilgan.

4-gurux xarajatlari uchun (Boshqa to'lovlar) 121 261.0 ming so'm (BTJ 265 849.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 100 497.7 ming so'm kassa xarajati (BTJ 125 456.6 ming so'm) va 100 497.7 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 125 456.6 ming so'm) amalga oshirilgan.

2025 Yil xarajatlar smetasi doirasida yillik 1 192 051.0 ming so'm (BTJ 3 001 131.0 ming so'm) tasdiqlangan bo'lib, 444 301.9 ming so'm kassa xarajati (BTJ 453 089.2 ming so'm) va 444 301.9 ming so'm xaqiqiy xarajati (BTJ 438 275.0 ming so'm) amalga oshirilgan. Jumladan;

1 -gurux xarajatlari uchun (ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) 855 884.0 ming so'm (BTJ 2 363 703.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 5 oy uchun 332 706.6 ming so'm (BTJ 345 858.0 ming so'm) kassa xarajati va 332 706.6 ming so'm (BTJ 345 858.0 ming so'm) xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

2-gurux xarajatlari uchun (Yagona ijtimoiy to'lov va boshqa ajratma to'lovlar) 211 831.0 ming so'm (BTJ 585 016.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 5 oy uchun 85 523.2 ming so'm (BTJ 86 464.5 ming so'm) kassa xarajati va 85 523.2 ming so'm (BTJ 86 464.5 ming so'm) xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan.

4-gurux xarajatlari uchun (Boshqa to'lovlar) 123 786.0 ming so'm (BTJ 52 412.0 ming so'm) smeta tasdiqlangan bo'lib, 5 oy uchun 28 522.0 ming so'm (BTJ 20 766.6

ming so'm) kassa xarajati va 28 522.0 ming so'm (BTJ 5 952.4 ming so'm) xaqiqiy xarajati amalga oshirilgan. (jadval ilova qilinadi)

Shtatlar jadvali:

2024 yil shtatlar jadvali Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Shtatlar jadvalida jami 27 ta shtatlar birligidan iborat. Shundan, 11 ta ma'muriy boshqaruv xodimlari, 16 ta texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini tashkil etadi. Shtat jadvalining yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 524 859 403.9 so'mni tashkil etadi. (shtat jadvali ksera nusxasi ilova qilinadi)

2025 yil shtatlar jadvali Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Shtatlar jadvalida jami 27 ta shtatlar birligidan iborat. Shundan, 11 ta ma'muriy boshqaruv xodimlari, 16 ta texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini tashkil etadi. Shtat jadvalining yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi 855 884 555.4 so'mni tashkil etadi. (shtat jadvali ksera nusxasi ilova qilinadi)

Kadrlar masalasiga oid qarorlar ijrosi yuzasidan:

Tekshiruv davri uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda "Vazirlar Mahkamasining «Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ulami moddiy rag'batlantirishning lakomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida» 2018 yil 19 iyundagi 458-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 706-son qaroriga asosan ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlar mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 18 oktabrdagi 297-son qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida" Nizomda budget tashkilotlarining rahbarlari,

ulaming o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari va ulaming o'rinbosarlari uchun kasblar va lavozimlarda bir necha kasb va lavozim asosida ishlashga, xizmat ko'rsatish zonasini kengaytirishga, ishlar hajmini ko'paytirishga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, kasblar va lavozimlarda bir necha kasb va lavozim asosida ishlashga, xizmat ko'rsatish zonasini kengaytirishga, ishlar hajmini ko'paytirishga, qoidaga ko'ra, jumlasiga ushbu xodim kiradigan xodimlarning ana shu toifasi doirasida ruxsat berilishi qayd etilgan.

Mazkur qaror bo'yicha o'rganilganda, Boshqarma xodimlari o'rindoshlik asosida ishlaganlik holatlari aniqlanmadi.

Hisobxonada xisob-kitob va hisobot ishlari yuritilishi:

Boshqarmada hisobxonada xisob-kitob ishlari, buxgalteriya provodkalari, ish haqini hisoblash, to'lov topshiroqnomalari, buxgalteriya kitoblari, moliyaviy hisoblar to'liq "UzASBO" dasturiy majmuasi orqali yuritilib, tegishli choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida taqdim qilingan.

Davlat xaridlari tahlili yuzasidan:

Boshqarma tomonidan 2024 yilda jami 172 009,4 ming so'mlik, 2025 yilning 5 oyi mobaynida 39 132,4 ming so'mlik jami 211 141,8 ming so'mlik xaridlar amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi.

Muqaddam o'tkazilgan tekshirishlar yuzasidan:

Xorazm viloyati prokuraturasining 26.03.2025 yildagi 10.4/6-25-sonli xatiga asosan Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 27.03.2025 yildagi 02-13-33-32/300-sonli buyrug'i bilan tekshirish o'tkazilgan. Tekshirishda aniqlangan kamchiliklar birtaraf qilingan.

Boshqarmada mavjud ob'ektlar ulaming ijarasi va kadastr hujjatlari qonuniyligi yuzasidan:

Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi balansida jami 163 ta ob'ektlar mavjud bo'lib, shundan 32 tasi arxeologiya ob'ektlari, 58 tasi arxitektura ob'ektlari, 72 tasi monumental sanat yodgorliklari va 1 tasi diqqatga sazovor joylar.

Jumladan, 9 ta ob'ektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining tegishli qarorlari bilan tekin foydalanishga topshirilgan, 7 ta ob'ektlar Vazirlar Maxkamasining 06.03.2014 yildagi "Moddiy madaniy meros ob'ektlarini va ularga tutash hududlarni ulami obodonlashtirish va zarur holatda saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlari Olgan holda ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 53-sonli Qarori bilan uzoq muddatli, 3 ta ob'ektlar Vazirlar Maxkamasining 14.12.2023 yildagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada lakomillashtirish to'g'risida"gi 660-sonli Qaror bilan qisqa muddatli ijaraga berilgan bo'lib, ushbu ob'ektlar tanlov asosida o'rganilganida, ijara shartnomalar tuzilgan xolatda faoliyat Olib borilayotganligi aniqlandi.

Xususan, yuqoridagi Vazirlar Maxkamasining 06.03.2014 yildagi 53-sonli Qarori bilan uzoq muddatli ijaraga berilgan ob'ektlarda viloyat hokimining budjet ob'ektlarini ijaraga berish koeffitsientlari belgilanmaganligi sababli, 2025 yil uchun Xorazm viloyati davlat ob'ektlaridan samarali foydalanish davlat muassasasi tomonidan ijara shartnomalar tuzilmaganligi aniqlandi. Ushbu xolat bo'yicha hozirgi kunda Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchilarga tegishli tartibda ogoxlantirish xati yuborilgan.

Mazkur xolat yuzasidan boshqarma mas'ul xodimlariga tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini rivojlantirish sohasida:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi:

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyati to'g'risidagi nizom;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaviy xattiharakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament.

IX. Xulosalar

Agentlik va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi va chora-tadbirlar dasturida belgilangan ishlar doimiy ravishda bajarilib kelinmoqda va ularning bajarilishi nazorat qilinmoqda.

Joriy yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli choratadbirlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, mazkur yo'nalishda qabul qilingan Davlat dasturlari va boshqa dasturlarning samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi rejalashtirildi. Bunda asosiy e'tibor:

xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash; ochiq ma'lumotlar sifatida rasmiy

sahifalarda joylashtirilishi lozim bo'lgan ahamiyatga molik ma'lumotlarni o'z vaqtida belgilangan ro'yxat asosida joylashtirilishini nazorat qilish; jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini qonuniy ko'rib chiqib, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rish.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha ishlarni to'laqonli va sifatli bajarish hisobot yili yakuniga ko'ra vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi baholash ko'rsatkichlarining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i B.Rashidova